

EKINZORLARNI, O'RMONLARNI, DARAXTLARNI YOKI BOSHQA
O'SIMLIKLARNI SHIKASTLANTIRISH YOXUD NOBUD QILISH
JINOYATLARINING KRIMINALISTIK TAVSIFI VA ISBOTLANISHI LOZIM
BO'LGAN HOLATLAR

Qurbanov Javoxir Odil o'g'li.

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi "Tergov faoliyati"
mutaxassisligi bo'yicha magistratura tinglovchisi.

E-mail: zhavokhir.kurbanov@mail.com; Phone: +99897 904-11-18.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11521285>

Abstract. Maqolada ekinzorlarni, o'rmonlarni, daraxtlarni yoki boshqa o'simliklarni shikastlantirish yoxud nobud qilish jinoyatlarining kriminalistik tavsifi va isbotlanishi lozim bo'lgan holatlar yoritilgan. Amalga oshirilgan tadqiqot asosida umumiylar berilgan, ekinzorlarni, o'rmonlarni, daraxtlarni yoki boshqa o'simliklarni shikastlantirish yoxud nobud qilish jinoyatlarini tergov qilishda sudga qadar ish yuritish bosqichini o'tkazish bo'yicha amaliy tavsiyalar bildirilgan.

Tayanch Tushunchalar: O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi, jinoyat, jazo, huquqni muhofaza qilish organlari, tergov faoliyati, ekinzorlar, o'rmonlar, daraxtlar, shikastlantirish, nobud qilish, kriminalistik tavsif, isbot.

**CASES WHICH REQUIRED CRIMINAL DESCRIPTION AND PROOF OF
CRIMES OF DAMAGE OR DESTRUCTION OF FIELDS, FORESTS, TREES OR
OTHER PLANTS**

Abstract. The article describes the criminalistic description of the crime of damaging or destroying crops, forests, trees or other plants and the circumstances that must be proven. On the basis of the conducted research, general conclusions were given, practical recommendations were made for conducting the pre-trial proceedings in the investigation of crimes of damage or destruction of crops, forests, trees or other plants.

Key words: Criminal Code of the Republic of Uzbekistan, crime, punishment, law enforcement agencies, investigative activities, plantations, forests, trees, damage, destruction, criminal description, evidence.

**СЛУЧАИ, ТРЕБУЮЩИЕ УГОЛОВНОГО ОПИСАНИЯ И ДОКАЗАНИЯ
ПРЕСТУПЛЕНИЙ, ПРИВЕДЕННЫХ ПОВРЕЖДЕНИЮ ИЛИ УНИЧТОЖЕНИЮ
ПОЛЯ, ЛЕСА, ДЕРЕВЬЕВ ИЛИ ДРУГИХ РАСТЕНИЙ**

Аннотация. В статье дана криминалистическая характеристика преступления, связанного с повреждением или уничтожением посевов, лесов, деревьев или других растений, а также обстоятельства, подлежащие доказыванию. На основе проведенного исследования были даны общие выводы, даны практические рекомендации по ведению досудебного производства при расследовании преступлений, связанных с повреждением или уничтожением посевов, лесов, деревьев или других растений.

Ключевые слова: Уголовный кодекс Республики Узбекистан, преступление, наказание, правоохранительные органы, оперативно-розыскная деятельность, насаждения, леса, деревья, повреждение, уничтожение, характеристика преступления, доказательства.

KIRISH

Jinoyat ishlari bo'yicha har tomonlama, to'la va xolisona tergov harakatlarini olib borish, javobgarlikning muqarrarligi va haqiqatni aniqlash tamoyillarini amalda namoyon etish uchun ekinzorlarni, o'rmonlarni, daraxtlarni yoki boshqa o'simliklarni shikastlantirish yoxud nobud qilish jinoyatining kriminalistik tavsifini batafsil o'rganish talab qilinadi.

Ekinzorlarni, o'rmonlarni, daraxtlarni yoki boshqa o'simliklarni shikastlantirish yoxud nobud qilish jinoyati deganda blanket dispozitsiyali tarkibga ega bo'lgan jinoyatni tushunishimiz, ushbu jinoyatga huquqiy tahlil berish uchun bir qator boshqa qonunchilik hujjatlariga murojaat qilishimiz lozim bo'ladi.

Ekinzorlarni, o'rmonlarni, daraxtlarni yoki boshqa o'simliklarni shikastlantirish yoxud nobud qilish jinoyatlarning kriminalistik tavsifi jinoyat va jazo to'g'risidagi qonunda belgilab qo'yilgan ijtimoiy jihatdan xavfli g'ayrihuquqiy qilmishlarning ko'rib chiqilayotgan turlari eng muhim tomonlari to'g'risidagi umumlashtirilgan daliliy ma'lumotlardan hamda ularga asoslangan ilmiy xulosalar va tavsiyalar tizimidan iborat bo'ladi. Kriminalistik tavsiflarni bilish jinoyat ishlarini tez, har tomonlama va xolisona tergov qilishni tashkil etish uchun zarurdir.

Ekinzorlarni, o'rmonlarni, daraxtlarni yoki boshqa o'simliklarni shikastlantirish yoxud nobud qilish jinoyatlar kriminalistik tavsifi kompleks (ya'ni uyg'un birlikdagi) mazmunga ega.

Ularning asosiy qismi jinoiy xulq mexanizmini, jinoyat to'g'risidagi axborotni olish va undan foydalanish tarkibini kriminalistik tadqiq etish, jinoyatchining shaxsini aniqlash va hokazo jarayonida aniqlanadi. Shu bilan birga, ularda yaqin turuvchi yuridik fanlarning ayrim qoidalari bo'ladi. Biroq boshqa fanlardan bunday foydalanish odatdagagi ilmiy uyg'unlashuv (integratsiya) doirasi bilan cheklangan bo'ladi va tavsiflarning kriminalistik mohiyatiga ta'sir etmaydi.

Kriminalistik tavsiflar jinoyatlarning muayyan turlariga ham, o'xshash (bir-biriga yaqin) guruhlariga ham berilishi mumkin bo'lib, bu ularning juda xilma-xil bo'lishiga olib keladi.

Ekinzorlarni, o'rmonlarni, daraxtlarni yoki boshqa o'simliklarni shikastlantirish yoxud nobud qilish jinoyati to'g'risidagi eng tipik boshlang'ich axborotning ta'rifi jinoyatlar kriminalistik tavsifining muhim elementlari jumlasiga kiradi. Ana shu axborotning mazmuni va shakliga qarab tekshirishga oid ishlar tartibi hamda ularni ochish, tergov qilish va ularning oldin olishning dastlabki bosqichlari va dasturlari belgilanadi. Ekinzorlarni, o'rmonlarni, daraxtlarni yoki boshqa o'simliklarni shikastlantirish yoxud nobud qilishning kriminalistik tavsifi tarkibiga, jinoyatlarni sodir etish va yashirish usullari haqidagi ma'lumotlar tizimi ham kiradi.

Jinoyatlarni sodir etish usuli deganda jinoiy qilmishni tayyorlash, sodir etish va yashirishga, shu jumladan tegishli qurollar va vositalarni qo'llashga, joy va vaqtini tanlashga, tegishli holatlardan foydalanishga qaratilgan o'zaro aloqador hamda o'zaro bog'liq harakatlar tizimi tushuniladi.

Jinoyatlar kriminalistik tavsiflarining majburiy elementlari jumlasiga ehtimol tutilgan jinoyatchining shaxsi to'g'risidagi ma'lumotlar kiradi. Kriminalistik metodika sohasidagi tadqiqotlar shundan dalolat beradiki, jinoiy ekologik tajovuz, jinoyatni sodir etish usuli, uning xususiyatlari, oqibatlari va jinoyatchining shaxsi o'rtasida muayyan aloqadorlik bo'ladi. Bunday aloqadorlik haqidagi kriminalistik ma'lumotlardan foydalanib, tergovchilar va surishtiruvchilar ayrim jinoyatlar yuzasidan ehtimol tutilgan jinoyatchining shaxsi to'g'risida asosli versiyalarni olg'a surishlari hamda tergov qilishning eng maqsadga muvofiq dasturini belgilab olishlari

mumkin.

Shuni hisobga olib, jinoyatlar zamonaviy kriminalistik tavsiflarning aksariyatida ularni tergov qilish paytida aniqlanishi lozim bo‘lgan, jinoyatlar tarkibining asosiy elementlari bo‘yicha muayyan tizimga solingan holatlar ro‘yxati keltiriladi. Bular:

a) Shikastlantirish yoki nobud qilish obyekti (aynan qanday turdag'i o‘rmon, ekinzor, daraxt yoki o‘simlikka zarar yetkazilgan, zararning miqdori va hokazo);

b) Jinoyatning obyektiv tomoni (qayerda, qachon, qay tarzda, bir shaxsning yoki bir necha kishining harakatlari bilanmi, ulardan har birining tutgan o‘rni (roli), qanday holatlarda, oqibatlari qanaqa, yetkazilgan zarar, qilmish va oqibatlar o‘rtasidagi sababiy bog‘lanish, jinoyatga ko‘maklashgan holatlar va hokazo);

v) Jinoyat subyekti (shikastlantirish yoki nobud qilishni, olovga ehtiyyotsizlik bilan munosabatda bo‘lishni kim sodir etdi, uning shaxsini tafsiflovchi ma’lumotlar, agar shaxslar guruhi ishtirok etgan bo‘lsa, ular kimlar);

g) Jinoyatning subyektiv tomoni (ayb, uning shakli, qasddan qilingan ayb bo‘lsa, uning sababi va maqsadi, ehtiyyotsizlik bo‘lsa, o‘z-o‘ziga ishonish yoki jinoiy beparvolik natijasidami).

Bayon qilishning bunday usuli har xil turdag'i jinoyatlarni tergov qilishda aniqlanishi lozim bo‘lgan holatlar butun doirasining o‘ziga xosligini ifodalaydi va bir vaqtning o‘zida ilmiy ma’lumotlardan amaliyotda nisbatan osonlik bilan foydalanishini ta’minlaydi.

Shu bilan birga jinoyatlarni tergov qilishda isbotlanishi lozim bo‘lgan holatlar doirasini ortiqcha aniqlashtirib yuborish joiz emasligini hisobga olish kerak. Negaki bu jinoyat tarkibining jinoyat-huquqiy tahviliga aylanib qolishi mumkin va uslubiy tavsiyalardagi kriminalistik xususiyatlarning yo‘q bo‘lib ketishiga olib keladi.

Ekinzorlarni, o‘rmonlarni, daraxtlarni yoki boshqa o‘simliklarni shikastlantirish yoxud nobud qilish jinoyatini **kriminalistik nuqtayi nazardan tavsiflash** deyilganimizda, ushbu jinoyatning sodir qilishga tayyorgarlik ko‘rish fe’l-atvorini, sodir qilish usullarini, sodir qilish vaqtini va joyini, shu bilan birgalikda uni guruhda sodir qilishida, har bir guruh qatnashchilarini o‘ziga xos bo‘lgan harakatlarni bajarilishini tushunishimiz lozim. Binobarin, ekinzorlarni, o‘rmonlarni, daraxtlarni yoki boshqa o‘simliklarni shikastlantirish yoxud nobud qilish jinoyatini kriminalistik tavsifiga quyidagi elementlarni kiritish to‘g‘ri deb tasvirlab bersak maqsadga muvofiq bo‘ladi. O‘z navbatida ularga quyidagilar kiradi:

- a) motiv va maqsad;
- b) jinoiy tajovuz obyekti;
- v) jinoyatni sodir etish vaqtini, shart-sharoiti;
- g) jinoyatni sodir etish usuli;
- d) izlarning hosil bo‘lish mexanizmi;
- e) jinoyatchining shaxsi;
- j) jinoyat predmeti;

z) kesish orqali nobud bo‘lgan daraxtlar yoki o‘simliklarni o‘tkazish (kimlar bunda ishtirok etadi, jinoyat sodir etishda ishtirok etmagan bo‘lsa-da, jinoiy yo‘l bilan qo‘lga kiritilgan daraxtlar yoki o‘simliklarni sotib olish va sotishni amalga oshirgan shaxslarni o‘rganish) kabi belgilarni kiritish maqsadga muvofiq.

O‘rganilayotgan jinoyatning sodir etilish usullari ancha o‘ziga xosligi bilan boshqa

jinoyatlardan ajralib turadi.

Ekinzorlarni, o'rmonlarni, daraxtlarni yoki boshqa o'simliklarni shikastlantirish yoxud nobud qilish jinoyatning sodir etish usulining ayrim muhim elementi ularning puxta tayyorlanishi hisoblanadi. Tayyorgarlik ko'rish harakatlariga quyidagilar kiradi:

- Shikastlantirish yoki nobud qilish obyektini oldindan o'rganish;
- Jinoyat sodir etish rejasini ishlab chiqish;
- Ishtirokchilarni tanlash va ular o'rtasida vazifalarni taqsimlash;
- Eng qulay joy va vaqtini tanlash;
- Vositalarni tayyorlash;
- Tashqi ko'rinishini niqoblash;
- Daraxtlar, butalar, o'simliklarni jinoyat joyidan olib ketish, yo'q qilish;
- Hokazolar.

Ekinzorlarni, o'rmonlarni, daraxtlarni yoki boshqa o'simliklarni shikastlantirish yoxud nobud qilish jinoyatni sodir etish chog'ida jinoyatchilar tomonidan qoldiriladigan izlar juda ham rang-barang bo'lib, ular jinoyatning turlari, shuningdek, sodir etish usullariga bog'liqdir.

Ularni topilgan joyi bo'yicha ham, ushbu izlarni hosil qilgan obyektlar bo'yicha ham tasniflash mumkin. Tasodify shaxslar izlarini istisno qilganda, quyidagi iz hosil qiluvchilarni ajratish mumkin: jinoyatchi; jinoyat quroli; jinoyat quroli va vositalaridan qolgan izlar, tajovuz predmeti; atrof-muhit.

Undan tashqari, jinoyatchi shaxsning alohida ijtimoiy belgilari to'g'ridan -to'g'ri jinoyatni kvalifikatsiya qilishga va unga nisbatan jazo choralarini belgilashga ta'sir ko'rsatadi.

Shuningdek, jinoyatchi shaxsini har tomonlama tahlil qilmaslik ekinzorlarni, o'rmonlarni, daraxtlarni yoki boshqa o'simliklarni shikastlantirish yoxud nobud qilish jinoyatini samarali tergov qilish va oldini olish muammolarining ijobiy hal etilishini murakkablashtiradi.

Tadqiq etilayotgan jinoyatlarni sodir etgan shaxslar tarkibining ijtimoiy-demografik tahlili ularning aksariyati (99 %) erkaklar hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatgan.

Inson organizmining ma'lum yoshga ulg'ayish xususiyatlari shaxsning shakllanishiga muhim ta'sir etadi. Bir yoshdagi bosqichdan boshqasiga o'tishda inson doimo ijtimoiy muhit bilan o'zaro aloqada, hayotiy tajribaga ega bo'lib, uni to'ldirib boradi. Har bir yoshdagi bosqich o'ziga xos fiziologik, psixologik va eng muhimi, sotsiologik xususiyatlarga ega bo'ladi. Ushbu holat to'liq holda jinoyatchi shaxsga ham tegishlidir. Jinoyatchi shaxsning biologik, sotsiologik yoshiga xos xususiyatlar va u tomonidan sodir etilgan jinoyatning turi va xususiyati o'rtasida obyektiv aloqa mavjuddir. Shaxsning yoshga oid xususiyatlarini inobatga olish ekinzorlarni, o'rmonlarni, daraxtlarni yoki boshqa o'simliklarni shikastlantirish yoxud nobud qilish jinoyatini samarali tergov qilish uchun zarur bo'ladi. Ekinzorlarni, o'rmonlarni, daraxtlarni yoki boshqa o'simliklarni shikastlantirish yoxud nobud qilish jinoyatini sodir etgan shaxsning yoshga oid xususiyatlari mazkur jinoyatni sodir etish motiv va maqsadlarining shakllanishiga, jinoiy xohish-istikani amalga oshirish usuliga ta'sir etadi. Buning barchasi insonning xulq-atvori bilan bog'liqidir.

Tergov va sudlov amaliyotining ma'lumotlariga ko'ra, ekinzorlarni, o'rmonlarni, daraxtlarni yoki boshqa o'simliklarni shikastlantirish yoxud nobud qilish jinoyatida ko'pincha, ikki-uch shaxslardan iborat bo'ladi. Ayrim hollarda jinoiy guruhlar tomonidan sodir etiladi. Jinoiy guruhlar ko'pincha barqaror ravishda shunga o'xshash va boshqa jinoyatlar majmuini sodir etadilar.

Bu jinoyatlarni tergov qilishda qiyinchilik tug‘diradi va tezkor vaziyatni murakkablashtiradi.

Ekinzorlarni, o‘rmonlarni, daraxtlarni yoki boshqa o‘simliklarni shikastlantirish yoxud nobud qilish quyidagi joylarda sodir etiladi:

- O‘rmonlarda;
- Davlat qo‘riqxonalarida;
- Qishloq xo‘jalik yerlarida;
- Biosferalik rezervatlarda;
- Mahalliy ichki ko‘chalarda;
- Davlat o‘rmon fondiga kirmaydigan ekinzorlarda;
- Bog‘larda.

Vaqtiga ko‘ra ko‘cha ekinzorlarni, o‘rmonlarni, daraxtlarni yoki boshqa o‘simliklarni shikastlantirish yoxud nobud qilish jinoyati, asosan, kunning kechki davrida sodir etiladi.

Ekinzorlarni, o‘rmonlarni, daraxtlarni yoki boshqa o‘simliklarni shikastlantirish yoxud nobud qilishni tergov qilishda jinoyat sodir etish usullarini har tomonlama o‘rganish muhim o‘rin tutadi. Kriminalistlar tomonidan jinoyatni sodir etish usuli deb ataladigan umumiyliz tizimga tayyorlash, sodir etish va yashirishni kiritish haqidagi nuqtayi nazar to‘g‘ridir.

Ekinzorlarni, o‘rmonlarni, daraxtlarni yoki boshqa o‘simliklarni shikastlantirish yoxud nobud qilishning kriminalistik tavsifi to‘g‘risida fikr yuritganda, bizningcha, uning quyidagi belgilari ham nisbatan muhim elementlarni tashkil etishini ta‘kidlash zarur: Ekinzorlarni, o‘rmonlarni, daraxtlarni yoki boshqa o‘simliklarni shikastlantirish yoxud nobud qilish jinoyatini sodir etuvchi shaxslar tipologiyasi; jinoyatchilarining ijtimoiy pozitsiyasi; jinoyatchilarining ehtiyojlari, axloqiy va huquqiy ongi; jinoiy xatti-harakatlar mexanizmi; Ekinzorlarni, o‘rmonlarni, daraxtlarni yoki boshqa o‘simliklarni shikastlantirish yoxud nobud qilishni sodir etishga imkon beruvchi shart- sharoitlar (ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy-boshqaruv va madaniy-tarbiyaviy va boshqa.).

Ekinzorlarni, o‘rmonlarni, daraxtlarni yoki boshqa o‘simliklarni shikastlantirish yoxud nobud qilish jinoyatini sodir etish vaqtini va joyi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni tadqiq etish ichki ishlar organlarining patrul-post xizmatlari, yo‘l-patrul xizmatlari, hududiy ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi boshqarmalari, bo‘limlari ishini to‘g‘ri tashkil qilish, tezkor-qidiruv guruhlari ekipajlarining maqbul yo‘nalishlarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bunda shunday jinoyatlar dam olish kunlariga eng ko‘p to‘g‘ri kelishini e’tiborga olish lozim. Haftanining qolgan kunlarida ularning miqdori taxminan bir xildir va ushbu kunlarga nisbatan kamroqni tashkil etadi.

Shunday qilib, olib borilgan tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, ekinzorlarni, o‘rmonlarni, daraxtlarni yoki boshqa o‘simliklarni shikastlantirish yoxud nobud qilish jinoyatining kriminalistik tavsifi uni tergov qilish metodikasini takomillashtirish, ekinzorlarni, o‘rmonlarni, daraxtlarni yoki boshqa o‘simliklarni shikastlantirish yoxud nobud qilishni tez va to‘liq ochishga yo‘naltirilgan tergov harakatlarini o‘tkazish taktikasini maqbullashtirish borasida maqsadli va differensial tadbirlarni ishlab chiqish uchun zarurdir.

Ekinzorlarni, o‘rmonlarni, daraxtlarni yoki boshqa o‘simliklarni shikastlantirish yoxud nobud qilish jinoyatlarini tergov qilishda aniqlanishi lozim bo‘lgan holatlar mavjud bo‘lib, ularga

quyidagilar kiradi:

- 1) Ekinzorlarni, o'rmonlarni, daraxtlarni yoki boshqa o'simliklarni shikastlantirish yoxud nobud qilish jinoyatlari qachon, qayerda va qanday sharoitda sodir etilganligi;
- 2) jinoyatning sodir etilishida nechta shaxs ishtirok etganligi, ularning umumiy va xususiy belgilari;
- 3) jinoyatchilar quollangan bo'lsa, nimalar bilan quollanganligi;
- 4) yetkazilgan zararning miqdori va xususiyatlari;
- 5) jinoyat natijasida qolgan izlar, (daraxtlar qirqim qoldiqlari, yong'in natijasida qolgan kul izlari, o'zimliklarni shikastlangan qoldiqlari va hokazolar);
- 6) jinoyat natijasida jinoyatchilar qanday turdag'i daraxt, o'simlik, buta, ekinzorlarni nobud qilganligi yoki shikastlantirganligi;
- 7) jinoyatlarning sodir etilishiga sabab bo'lgan sharoitlar.

Ekinzorlarni, o'rmonlarni, daraxtlarni yoki boshqa o'simliklarni shikastlantirish yoxud nobud qilish jinoyatlarini sodir etishda jinoyatchilar puxta tayyorgarlik ko'radilar, jinoyatni sodir etish usullarini, ishtirokchilarni va vaqt ni tanlaydilar. Isbotlanishi lozim bo'lgan holatlardan biri jinoyatni sodir etish usulini aniqlash hisoblanadi.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi T. "O'zbekiston" 2023-yil.
2. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari milliy bazasining rasmiy veb-sayti www.lex.uz.
3. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat–protsessual kodeksi. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari milliy bazasining rasmiy veb-sayti www.lex.uz.
4. "O'zbekiston Yuridik ensiklopediyasi", T., "Adolat", 2010-yil.

Elektron ta'lif resurslari:

5. www.zionet.uz
6. www.lex.uz
7. <http://www.Norma.uz>.
8. <http://www.minjust.uz>